

Jamoatchilik kengashining xulosasi

1. Mazkur Xulosa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq va bojxona imtiyozlari va subsidiyalar berish tartibini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasiga quyidagi qoidalarni kiritish to‘g‘risidagi taklif yuzasidan tayyorlandi:

“2023-yil 1-yanvardan boshlab **100.0** mln so‘m va undan ortiq summada tovar-moddiy qimmatliklar qoldiqlariga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilar tovar-moddiy qimmatliklarni yalpi inventarlashdan o‘tkazishlari va inventarlash to‘g‘risidagi dalolatnomani shaxsiy kabinetlar orqali 2023-yilning 15-fevraliga qadar jo‘natishlari kerak;

QQS stavkasi yoki soliq solish rejimi o‘zgarganda, imtiyoz berilganda (bekor qilinganda) inventarlash to‘g‘risidagi dalolatnoma davlat soliq xizmati organlariga keyingi oyning 15 sanasiga qadar taqdim etiladi”.

2. Inventarlashni o‘tkazish va ma’lumotni soliq xizmatlariga taqdim etish to‘g‘risidagi talabning maqsadi – insofsiz soliq to‘lovchilarning suiiste’molchilik qilishlarini bartaraf etish, ular, shu jumladan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab QQS stavkasining 15 %dan 12 %gacha pasaytirilishidan foydalanishlari mumkin. Ehtimoliy suiiste’molchilikning mohiyati – 2022-yilning dekabr oyida haqiqatda 15% QQS bilan olingan naqd tushumni 2023-yilning yanvar-fevral oylariga 12 % bilan o‘tkazish. Shu tariqa, budjet 2022-yilning dekabr oyi tushumidan olishi kerak bo‘lgan 3 % QQSni to‘liq olmaydi.

3. Barcha soliq to‘lovchilar tomonidan 2023-yilning 1-yanvar holatiga inventarlashdan o‘tkazish talabini ortiqcha, deb hisoblaymiz. U quyidagi sabablarga ko‘ra bayon etilgan suiiste’molchilikka qarshi kurashish maqsadlarini ta’minlamaydi:

a) yirik soliq to‘lovchilar 2022-yilning dekabr oyida ko‘rsatmasdan, 2023-yilga o‘tkazishlari mumkin bo‘lgan naqd tushumga deyarli ega emas. Obro‘ga putur yetishi xavfini hisobga olgan hoda, yirik soliq to‘lovchilar tomonidan tushumni yanvarga o‘tkazish yo‘li bilan suiiste’molchilik ehtimoli kam.

b) naqd tushumga, avvalo savdoda naqd tushumga ega kichik tadbirkorlik subyektlarida suiiste'molchilik ehtimoli mavjud. Bunda ushbu tushumning jiddiy qismi yashirin hisoblanadi va shu bois undan na 15%, na 12% QQS to'lanmaydi. Bunday tashkilotlar tomonidan tovarlar qoldiqlari to'g'risida ma'lumotning taqdim etilishi muammoni hal qilish imkonini bermaydi, sababi eng yaxshi holatda bu tovar aylanmasining "oq" qismi bo'yicha buxgalterlik dasturidan ma'lumotlar bo'ladi.

v) qo'yilgan maqsadlarni ta'minlamagan holda, majburiy inventarlash talabi biznesning soliq majburiyatlarini bajarish uchun xarajatlarining o'sishiga va soliq xizmati organlariga nisbatan salbiy baholar sonining oshishiga ko'maklashadi.

g) soliq organlari minglab korxonalar bo'yicha ma'lumotlar oladilar, ularni tahlil qilish va tekshirish holatida bo'lmaydilar. Natijada, biznes va soliq organlarining maxsus tekshirishga jami xarajatlari aniqlangan tushumni o'tkazish holatlari va 3% QQS to'liq kelib tushmaganiga qaraganda ko'proq bo'ladi.

Jamoatchilik kengashi a'zolari maslahatlashuvlar o'tkazdilar va 12 % QQS stavkasiga o'tishda suiiste'molchilikni eng kam darajaga tushirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar pozitsiyasidan ularning samaradorligini baholagan holda, jadvalda muammoni hal qilishning mavjud variantlarining ta'rifini beradilar.

Naqd tushumni 2022-yilning dekabr oyidan 2023-yilning yanvar-fevral oylariga o'tkazishni qanday eng kam darajaga tushirish kerak?

| | Taklif qilinayotgan choralar | Ijobiy natijalar | Salbiy natijalar | Qo'llash bo'yicha tavsiyalar |
|----|--|-------------------------|--|---|
| 1. | 2023-yil 1-yanvar holatiga tovarlar qoldiqlari to'g'risida ma'lumot taqdim etish to'g'risidagi normani belgilash | Mavjud emas | – soliq organlari tomonidan haqqoniy bo'lmagan ma'lumotning olinishi, ularni tekshirish holatida bo'lmaydilar; | Ushbu chorani hatto TMZ qoldiqlari chegarasining oshishi va soliq to'lovchilar |

| | | | | |
|----|--|---|---|---|
| | (ular kamida 100 mln so‘m miqdorida mavjud bo‘lgan taqdirda) | | – biznesning soliq majburiyatlarini bajarishga xarajatlarining o‘shishi; – soliq to‘lovchilarning soliq organlariga ishonchsizligining oshishi | toifasining qisqarishi ehtimolini hisobga olgan holda ham qo‘llamaslik |
| 2. | 2023-yildan boshlab 12% QQSni nafaqat realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmaga, balki hisobga olishga ham belgilash. Soliq kodeksining 269-moddasiga 2023-yilning 1-yanvar holatiga balansda mavjud bo‘lgan TMQ, AV va NMA qoldiqlari qiymatiga QQSga 3%ga tuzatish kiritish to‘g‘risidagi normani kiritish. | Suiiste‘molchilikning 100 % imkoniyati mavjud emas Davlat budjeti - ___ trln so‘m yutadi | Soliq to‘lovchilar hisobga olishlari mumkin bo‘lmagan 3% QQS tannarxni oshiradi va narxning o‘shishiga va inflyatsiyaning yangi bosqichiga olib keladi; Foydalanilayotgan ko‘p AV va NMAlar 20 % stavka bo‘yicha yoki QQSsiz sotib olinganligini hisobga olgan holda, yuqori kapitallashuvga ega biznes uchun xarajatlarning sezilarli darajada oshishi; foydaning ___ trln so‘mga pasayishi; solliq to‘lovchilarning solliq tizimiga ishonchsizligining oshishi | Ushbu chorani qo‘llamaslik |
| | | | | |
| | Taklif qilinayotgan choralar | Ijobiy natijalar | Salbiy natijalar | Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar |

| | | | | |
|----|--|--|---|---|
| 3. | <p>Tushumni 2022-yilning noyabr-dekabr oylarida sun'iy ravishda kamaytirib ko'rsatgan (inflyatsiyani hisobga olgan holda) va uni 2023-yilning yanvar-fevral oylariga o'tkazgan soliq to'lovchilarni aniqlash maqsadida tahlila-tahlil tizimidan foydalanish.</p> <p>Soliq to'lovchilarni segmentlash va ushbu soliq davrida yuqori likvidli, shu jumladan, import qilingan tovarlarni realizatsiya qilish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, lekin ularni keyingi soliq davrida realizatsiya qilishni rasmiylashtirishning potensial qobiliyatiga ega bo'lganlarning ro'yxatlarini shakllantirish.</p> <p>2022-yil dekabrda soliq to'lovchilarni SSHK orqali tushumni sun'iy ravishda kamaytirib ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik, huquqbuzarliklarning soliq auditi o'tkazilgan</p> | <p>Suiiste'molchiliklar sonini kamaytirish</p> <p>Insofli soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarish uchun xarajatlarini oshirmaslik</p> <p>Qo'shimcha hisoblashlarning yuqori ehtimoliga ega soliq to'lovchilarni aniq tekshirish hisobiga tushumlarning o'sishi</p> <p>Soliq organlarining aynan insofsiz tadbirkorlik subyektlarini aniqlashga yo'naltirilgan qarorlariga soliq</p> | <p>Suiistemolchiliklarni 100 % istisno qilish imkoniyatining mavjud emasligi, sababi har qanday iqtisodiyotda kabi, yashirin iqtisodiyot sezilarli ulushga ega bo'ladi. Muammo kompleks hisoblanadi va faqat QQS doiradan tashqariga chiqadi, umuman tushumning to'liqligini aniqlashga kiradi.</p> | <p>Qo'llash uchun tavsiya qilinadi.</p> <p>2022-yilning noyabr-dekabr oylarida tushumning sun'iy ravishda kamaytirib ko'rsatilishini aniqlash quyidagilarni solishtirishga asoslanishi mumkin:</p> <p>a) har bir korxonaga bo'yicha tushumni 2019, 2020 va 2021-yillardagi shunga o'xshash davrlar ko'rsatkichlari bilan inflyatsiyani hisobga olgan holda;</p> <p>b) 2022-yilning 4-choragida tushumning oyma-oy o'sishini oldingi 3 yildagi shunga o'xshash ko'rsatkichlar bilan.</p> <p>Dekabr oyidagi tushum darajasining past darajasi va bir vaqtning o'zida tovar</p> |
|----|--|--|---|---|

| | | | | |
|--|---|---|--|--|
| | holda tahlika-tahlil asosida aniqlanishi to'g'risida xabardor qilish. | to'lovchilarning ijobiy munosabatlarini oshirish. | | qoldiqlarining o'sishi nazorat qiluvchi organlar uchun suiiste'molchilik ehtimoli to'g'risida ishora hisoblanadi va soliq auditini tayinlash uchun asos bo'lishi mumkin. |
|--|---|---|--|--|